

**O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINING RIVOJLANISHIDA ERKAKLAR
RAQSINING O‘RNI**

Nazarova Eliza

“Xoreografiya jamoalari rahbari”

ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Matluba Murodova

O‘zbekiston hududi insoniyat tarixi va madaniyatining eng qadimgi go‘shalaridan biridir. So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik, tarixiy izlanishlar natijasi bunga misoldir.

Yurtimiz mustaqillikka erishishidan oldin Markaziy Osiyoning ko‘p xalqlari qatorida o‘zbek xalqining madaniyati ham kamsitilib kelindi. O‘zbek xalqi madaniyatining qadimiy ildizlari yo‘qligi da’vo qilindi, bu boshqa xalq madaniyati ta’sirida rivoj topgan, degan gaplar o‘ylab topildi.

Xalqimizning o‘tmishiga oid manbalar o‘rganilganda esa xalqimizning madaniyati va san’atining o‘ziga xos qirralari haqidagi ma’lumotlar aniqlandi. Masalan, Markaziy Osiyoda bronza davrining oxirlari va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar muqaddas “Avesto” kitobida o‘z aksini topgan. “Avesto” qismlarining diniy-marosimiy ijro shakllari va uning ijro usullariga e’tibor qaratilsa, san’atning boshqa turlari bilan birga raqs san’atining rivojini ham ilg‘ash mumkin.

O‘tgan asrning 70-yillari oxirlarida hozirgi Navoiy shahridan 40 km uzoqlikdagi Qoratog‘ning etaklaridagi Sarmishsoy qoyatoshlaridan topdigan 100 dan ortiq rasmlar orasida raqsga tushayotgan 2 kishi tasviri ham topildi. Olimlar xulosasiga ko‘ra bu rasmlar miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga taalluqli ekanligi aniqlandi.

Mamlakatimizning qadimiy shaharlari Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazmdan topilgan ko‘plab yodgorliklar o‘zbek raqs san’atining qadimiyligidan darak beradi. Xolchayon, Ayritom, Dalvarzintepa, Afrosiyob va boshqa shahar xarobalaridan topilgan ashyoviy dalillar raqs san’atining qadimiy tarixiga ega ekanligini isbotlaydi.

Baqtriya va Sug‘dda hamda boshqa joylardan topilgan yodgorliklar anchagina bo‘lib, ular qo‘shiq kuylash (jumladan yakka qo‘shiq, yakka raqs, guruh bo‘lib aytish, guruh bo‘lib raqsga tushish) manzaralarni aks ettiradi.

Mazkur davrlarda o‘zbek san’ati namoyandalari ham boshqa hudud san’ati bilan faol aloqada bo‘lganlar. Masalan, Baqtriya podshosi Monandr Hindistonning katta qismini bosib olganidan so‘ng, mahalliy madaniyat - Hindiston madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan.

O‘zbek xalqi madaniyati, ayniqsa uning ma’naviy madaniyatini shakllanishida kuy-qo‘shiq bilan birga folklor raqs san’ati muhim rol o‘ynagan. O‘zbek san’atini tadqiq etgan olimlar har bir xalqning madaniy hayoti avvalo raqs san’ati bilan boshlangan va bu narsa o‘sha xalqlarning eng dastlabki, ibtidoiy hayot tarzi, turmushi bilan bog‘liqligi haqida ma’lumot bergan[1, 18-b.].

O‘tmishda tirikchilik tashvishlari, ayniqsa ovchilik, turli mashaqqatlar tufayli qo‘lga kiritilgan yutuqlarni ibtidoiy odamlar turli jismoniy xatti-harakatlar orqali ifoda etganlarki, bu holatlar raqs san’atining paydo bo‘lish jarayonini anglatadi.

Ko‘plar o‘tmishda raqs shunchaki ma’raka va tuylarda nuqul o‘rtada o‘ynalgan deb o‘ylaydi. Bu yanglish tasavvur: o‘tmishda raqs ikki qanotli bir qushga o‘xshagan: Bir qanoti xalq raqsi bo‘lsa, ikkinchisi malakali mumtoz raqsdir.

Raqs san’ati eng qadimiy san’at turlaridan biri hisoblanib, jahondagi deyarli barcha xalqlar san’atining qadimiysi bo‘lib, juda boy an’analarga ham ega.

O‘zbek xalq san’ati ham kishilik jamiyati taraqqiyotining uzoq-uzoq davrlarga borib taqalishi borasida M.Rahmonovning “O‘zbek teatri” kitobida bayon etilishicha: “Ijrochilik san’atining ko‘pgina tur va janrlari kabi, o‘zbek raqs san’ati ham ikki ming yildan ko‘proq rivojlanish tarixiga ega. Uning tug‘ilishida ham mehnat jarayoni, ibtidoiy jamiyat davriga mansub tasviriy san’at yodgorliklarida, pantomim raqsga tushib turgan kishilar tasvirini juda ko‘p uchratamiz. Ular turli mazmun va xarakterga ega. Ba’zilari mehnat va ov jarayonini tasvirlasa, ba’zilari qandaydir tabiat hodisalariga talpinayotganga, sajda qilayotganga o‘xshaydilar. Ba’zilari, jangovor o‘yinni eslatsa, ba’zi raqs afsunkorlik va totemizm (sig‘inish) diniy marosimlari bilan aloqadordir. Bular shuni ko‘rsatadiki, dunyoning turli qit’alarida bo‘lganidek, O‘zbekiston territoriyasida ham odamning boshqa qiyofaga kirishi va pantomim o‘yin san’ati ibtidoiy zamonlardananoq shakllana boshlagan” [2, 50-b.].

Insonning turli kechinmalarini yorqin va ajoyib kuch bilan ifodalovchi imo-ishora va harakatlar raqs san’ati deb ataladi. Raqs, chuqur hayajon, kuchli kechinmalarni ifodalaydigan vosita sifatida vujudga kelgan.

Inson va xalqning his-hayajoni, ruhiy holati raqsning haqiqiy badiiy mazmuni hisoblanadi. Raqsning harakat va imo-ishoralari ritmik sistemasi asosida vujudga kelgan o‘ziga xos obrazlarida aks etadi. Bu obrazlarni yaratish uchun esa raqqosning tanasi unga ishchi qurol bo‘lib xizmat qiladi. Ammo raqs faqatgina inson gavdasining imkoniyatlarinigina emas, uning ma’naviy dunyosini ham aks ettiradi. Ammo, raqsda bu ikki jihat bir-biriga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Badiiy obraz ham huddi ana shu raqqos gavdasining kuchi va mahoratida, chaqqon va go‘zal harakatida gavdalanadi. San’atda mazmun bilan shaklni bir-biridan ajratish xato ekanligi raqs misolida yaqqol ko‘rinadi. Ba’zan san’at asari mazmunan “yaxshi”, ammo uning ijrosi “yomon” deb noto‘g‘ri o‘ylaydilar. Eng kuchsiz va mahoratsiz raqqosda ham ajoyib raqs haqidagi “orzu” paydo bo‘lishi mumkin. Biroq raqqosda haqiqiy qobiliyat va mahorat bo‘lmasa, agar o‘z fikrini ritm qonun-qoidalarini asosida harakatlanuvchi ajoyib raqlar bajaruvchi gavdaga aylantira olmasa, uning fikri fikrligicha, orzusi orzuligicha qolaveradi.

Biz, raqs hammani ham maftun etadi, quvonch va erk hissini uyg‘otadi deymiz. Bu kuchli hissiyot ko‘p kishilarda paydo bo‘lishi mumkin. Lekin bu hissiyotni aks ettiruvchi raqsni yaratish uchun gavda o‘z-o‘zidan erkin, yengil va go‘zal harakatlanishi lozim. Harakatning yengil va erkinligida, xuddi shulardagina, ruhiy yengillik va erkinlikni ko‘rsatish mumkin. Bu barcha xususiyatlar albatta boshqa san’atlarga ham aloqadordir.

20-Iyul, 2026-yil

Ammo raqs doimo o‘zgacha bo‘lib kelgan, bundan keyin ham betakrorligicha qolaveradi. Bu borada raqs tarixidan juda ko‘p misollar keltirishimiz mumkin.

M.Rahmonov kadimiy o‘zbek erkaklar raqslaridan “Ayiqlar o‘yin”, “Maymun o‘yin” va jumhuriyatimizdagi ayrim hududlarida hozirgi kungacha saqlanib va o‘ynalib kelinayotgan “Ot o‘yin”, “Chorloq o‘yin”, “Yumron qoziq o‘yin”, “Echki o‘yin” kabi bir qator qadimiy raqslarning tasvirini keltiradi, bu borada “Ovchilik o‘yin” haqida quyidagilarni yozadi:... “Ovchilik o‘yini” ibtidoiy jamiyatning ma’lum davrida paydo bo‘lib, ibtidoiy odamning diniy e’tiqodi bilan aloqador o‘ynindir. Bu o‘yin ovga ketish oldidan ijro etiladi, unda ovning unumli bo‘lishi uchun ibtidoiy odam tabiat hodisalariga, ayrim yovvoyi hayvonlarga sig‘inadi va ular sharafiga turli marosimlar o‘tkazadi, umum pantomim raqslar ijro etiladi, ayrim hayvonlarga va ov jarayoniga taqlid qilinadi. Bundan tashqari “Ovchilik o‘yinlari” ovdan qaytgandan so‘ng ham o‘ynaladi. Kun bo‘yi ov qilib, charchab kelgach, kechkurunlari o‘z azoiy-badanlariga dam berish, plastik va ritmik pantomim harakatlar bilan bugungi taassurotlarini, kayfiyat va tuyg‘ularini, ovdan mamnunliklarini, to‘qligini, sho‘xliklarini ifodalashardi. Bunday o‘yin istagan vaqtda har doim bir taxlitda qaytarila berar, hayvon o‘rnida esa odam o‘ynardi. “Ovchi o‘yin”lari avvallari qichqiriqlar, shovqin-suronlar bilan, keyinchalik turli musiqaviy ohang va tovushlar bilan olib boriladigan bo‘lsa kerak. “Ovchilik o‘yini”dagi pantomim raqs va musiqiy tovushlarni ijro etishda jamoa a’zolarining hammasi qatnashgan” [3,52-b.].

Demak, qadimgi milliy raqslarimizning asosiy mehnat jarayoni bilan bog‘likki, bu alohida ahamiyatga molik bo‘lgan hodisadir. Eng qadimgi g‘orlardagi devoriy suratlarda ham asosan raqs tushayotgan ekaklar tasvirlangan. Negaki o‘sha davrlarda ov bilan asosan ekaklar shug‘ullanganligi ma’lum. Ovdan oldin ular o‘z raqslari bilan ov baroridan kelishini yuqori kuchlardan so‘rab raqs tushgan bo‘lsalar, ovdan keyin ov natijasida berilgan rizqqa shukronalik va o‘ldirilgan jonvorlar ruhlaridan kechirim so‘rash ma’nosida raqs tushilgan. Shu asnodan erkaklar o‘z xursandchiligi, muvaffaqiyatini, yuqori kuchlarga bo‘lgan minnatdorchilik, sadoqati kabilarni o‘z raqslari orqali ifodalagan. Raqslarda uyg‘un harakatlarni ta’minlash maqsadida qattiq predmetlar (masalan, tayoq, suyak, tosh va boshqalar) bilan ohang (hozirgi musiqa) kabi berib turilgan.

Akademik M.Rahmonov, “Bu raqqoslarning bosh kiyimi qadimiy aktyorlarning uzun uchlik bosh kiyimiga aynan o‘xshaydi. Ularning qo‘lida biron ishlab chiqarish qurollari bo‘lmaganligidan ular professional aktyor yoki raqqos bo‘lgan deb faraz qilish mumkin”[4, 53-b.]. degan xulosaga keladi. Bu fikrlar erkaklar raqsi genezisini o‘rganish borasida o‘ta muhim bo‘lib, professional ijrochilik tarixini aniqlashda diqqatga sazovordir[5, 62-b.].

Shunday xulosaga kelish mumkinki, erkaklar raqsi qadim davrdan shunchaki qiziqish shakli bo‘lmay, o‘tkaziladigan marosimlar, tantanalar, rituallarning asosiy vositasi, tayanch manbasi bo‘lib xizmat qilgan. Kishilar o‘sha davrlardan bu soha bilan professional darajada shug‘ullanganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xamidov X. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik tarixi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Rahmonov M. O‘zbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). –Toshkent: Fan, 1975.
3. Rahmonov M. O‘zbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). –Toshkent, Fan. 1975.B–52.
4. Rahmonov M. O‘zbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). –Toshkent, Fan. 1975.B–53 .
5. Qodirov M. Navoiy va sahna san’ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, 2000.- 62 b
6. Karimova R. O‘zbek raqslari. –Toshkent: Cho‘lpon, 2003.